



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2025-yil 17-iyul

Moliyaviy resurslarni tahlil qilish va boshqarish departamenti



Namozov Farid Ozodovich

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati Moliyaviy resurslarni tahlil qilish va boshqarish departamenti boshlig'i

Telefon raqami: [+998781407484](tel:+998781407484)

Elektron pochta manzili: f.namozov@uks.uz

Mehnat faoliyati

2023-y. - h.v.

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati Moliya, g'aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti boshlig'i, Moliyaviy resurslarni tahlil qilish va boshqarish departamenti boshlig'i

2020-2023 yy.	“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati Moliya, g‘aznachilik operatsiyalari va xaridlar departamenti bosh mutaxassisi
2019-2020 yy.	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” Davlat korxonasi rejalashtirish va iqtisodiy boshqarmasi 1-toifali iqtisodchisi
2018-2019 yy.	“Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati moliya bo‘yicha direktori
2017-2018 yy.	“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish harajatlari tahlili, tannarxni qisqartirish va resurslarni tejash boshqarmasi bosh mutaxassisi
2015-2017 yy.	“Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi reja-iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
2013-2015 yy.	“Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi reja-iqtisodiyot bo‘limi iqtisodchisi
2011-2013 yy.	“Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyati 312-sex (ta‘mir-qurilish sexi) iqtisodchisi
2010-2011 yy.	“Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyati 201-sex (tiomochevina ishlab chiqarish) iqtisodchisi
2006-2010 yy.	Navoiy davlat konchilik instituti talabasi

Vazifalari

- Jamiyatning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish va uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash choralari ko‘rish;
- Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish jarayonida barcha turdagi resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish hamda maksimal foyda olish uchun kompaniyaning moliyaviy resurslari harakatini boshqaradi va bozor sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish;
- Tasdiqlangan moliyaviy ko‘rsatkichlarni Jamiyat tarkibiga kiruvchi bo‘ysunuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yetkazishni muvofiqlashtirish;
- Sarmoyalarning samaradorligini tahlil qilish va baholash;
- Jamiyat tarkibiga kiruvchi tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan qisqa va uzoq muddatli kreditlash, byudjetdan moliyalashtirish, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotib olish, qarz mablag‘larini jalb qilish va o‘z mablag‘laridan foydalanish manbalarini belgilash;
- Har bir mablag‘ manbasiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy xatarlarni baholash va uni kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/company/department/moliyaviy-resurslarni-tahlil-qilish-va-boshqarish-departamenti>